

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT KIMYO XALQARO UNIVERSITETI

OCHILOV BOBUR BAXTIYOR O‘G‘LI

**IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHDA
MAMLAKAT INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH
ISTIQBOLLARI**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li

Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda mamlakat investitsion
jozibadorligini oshirish istiqbollari 3

Очилов Бобур Бахтиёр ўғли

Перспективы повышения инвестиционной привлекательности страны по
привлечению иностранных инвестиций в экономику 29

Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli

Prospects for increasing the country’s investment attractiveness in attracting foreign
investment to the economy 57

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 63

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMUY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMUY KENGASH**

TOSHKENT KIMYO XALQARO UNIVERSITETI

OCHILOV BOBUR BAXTIYOR O‘G‘LI

**IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHDA
MAMLAKAT INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH
ISTIQBOLLARI**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2023.3.PhD/Iqt3266 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent Kimyo xalqaro universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida www.tsue.uz va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shomirov Azizbek Abdurashidovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Jumayev Nodir Xosiyatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Elmirzayev Samariddin Eshquvatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot
universiteti Toshkent shahri filiali**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.I.17.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” ____ kuni soat ____ dari majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100000, Toshkent shahri, A.Temur ko‘chasi, 60A uy. Tel.: (99871)234-53-34; faks: (99871) 234-46-26; e-mail:ilmiykengash@tseu.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 60A. Tel.: (99871) 234-53-34; faks: (99871) 234-46-26; e-mail: admin@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” ____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “___” ____ dari ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

T.Z. Teshabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

J.X. Ataniyazov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

I.N. Qo‘ziyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahonda yuzaga kelayotgan geosiyosiy keskinliklar va moliyaviy beqarorliklar oqibatida tijorat banklari tomonidan kreditlar yuqori foiz stavkalarida ajratilayotgani sababli, investitsiya loyihalarini xorijiy sarmoyalar hisobidan moliyalashtirishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Xususan, Birlashgan millatlar tashkilotining (BMT) Xalqaro investitsiyalar bo‘yicha hisobotiga ko‘ra, 2024-yil jahonda “global to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi 1.5 trln. AQSh dollarini bilan 4 foizga oshgan bo‘lsada, rivojlanayotgan mamlakatlarga TTXI oqimi o‘tgan yilga nisbatan 11 foizga kamaygan”¹. Bu holat iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda mamlakat investitsion jozibadorligini oshirish va yaxshilash hamda soliq imtiyozlaridan samarali foydalanishni taqozo etmoqda.

Jahon amaliyotida iqtisodiyotni rivojlantirishda, investitsiya muhitini yaxshilash orqali investitsiyalarning rolini oshirish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimini yanada faollashtirish, davlat tomonidan berilayotgan imtiyoz va preferensiyalarning samaradorligini baholash bo‘yicha ilmiy izlanishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mamlakat, hudud hamda sanoat korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan strategiyalarini yanada takomillashtirishga, potensial loyihalarni ishlab chiqishga, investitsiya muhitini yaxshilashga, shuningdek, investitsiya to‘sqliarini bartaraf etish, global sanksiyalar, pandemiya munosabati bilan yuzaga kelgan vaziyatning o‘ziga xosligini hisobga olgan holda, iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, iqisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llarini aniqlash bilan bog‘liq muhim masalalarini tadqiq etishni taqozo etmoqda.

O‘zbekistonda islohotlarning yangi bosqichida oqilona investitsiya siyosati asosida barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minalash, bu sohada 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmonida “...kelgusi besh yilda 120 mlrd. AQSh dollarini, jumladan 70 mlrd. dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko‘rish”² vazifalari qo‘ylgan. Respublikada olib borilayotgan islohotlar natijasida so‘nggi besh yilda qator ijobjiy natijalarga erishilgan bo‘lishiga qaramasdan, mavjud investitsiya salohiyatidan samarali foydalanish borasida hududlar o‘rtasida turli xil darajada nomutanosibliklar mavjudligi sababli barqaror o‘sish sur’atlarini ta’minalash masalasi eng dolzarb muammolardan biri sifatida qolmoqda. Shu sababli iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarga xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish hamda yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirishda hududlardagi maxsus zonalardan hamda sanoat kooperatsiyasi imkoniyatlaridan keng foydalanish orqali qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish vazifalarining belgilab qo‘yilishi mavjud

¹ <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2025> - World Investment Report 2025.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>

iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish masalasini hozirgi kundagi eng dolzarb vazifalardan biriga aylantirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-sonli ““O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2022-yil 30-dekabrdagi PF-287-son “Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 1-maydagi PQ-4702-son “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi, 2020-yil 28-yanvardagi PQ-4937-son “O‘zbekiston Respublikasining 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabrdagi PQ-459-son “O‘zbekiston Respublikasining 2023-2025-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Investitsiyalarning nazariy asoslari, investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligi, investitsiya muhiti va uning jozibadorligi, xorijiy sarmoyalarni jalg qilishning ilmiy-nazariy asoslari xorijlik iqtisodchi-olimlardan E.Sojli, W.Wah, A.Rolik, O.Volik, O.Solntseva, Yu.Tsunaeva, A.Asaul, N.Murashko, S.Gutkevich, O.Takhumova, Ye.Kasatkina, Ye.Maslixova, A.Yumashev, M.Yumasheva, Yu.Dovgan, M.Aminul, H.Liu, M.Asif Khan, T.Islam, R.Sultanuzzaman, G.Galeeva, Ye.Kadeeva, E.Dolan, D.Lindsey, Dj.Keyns. J.A.Schumpeterlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida tadqiq etilgan³.

³ Elvira Sojli, Wing Wah Tham. “The Impact of Foreign Government Investments: Sovereign Wealth Fund Investments in the United States” In Institutional Investors in Global Capital Markets. Published online: 8 March 2015; 207-243. www.scopus.com.; Yurii A.Rolik. A Complex Approach to Evaluating the Innovation Strategy of a Company to Determine its Investment Attractiveness// Procedia – Social and Behavioral Sciences, Volume 99, 6 November 2013, pages 562-571. https://www.sciencedirect.com.; Волик Ольга Андреевна, Солнцева Оксана Глебовна, Цунаева Юлия Олеговна. Повышение инвестиционной привлекательности торговых предприятий. // Вестник университети №6, 6; (2018).; Асаул А.Н. Формирование инвестиционного климата (опыт Петербургского региона).//«Экономика Украины»: Киев, №4. (2013). Мурашко Н.Н. «Оценки инвестиционной привлекательности регионов Республики Беларусь и возможности ее прогнозирования». МИДО БНТУ 2016. Стр.116.; Svitlana Gutkevych. Investment Attractiveness of Industries: Features and Trends// Baltic Journal of Economic Studies, vol. 5, № 3, 2019. P. 9.; Takhumova Oksana V., Kasatkina Elena V., Maslihova

Mahalliy iqtisodchi-olimlardan A.Vaxabov, T.Malikov, O.Olimjonov, D.G'ozibekov, N.Jumayev, N.Xaydarov, N.Qo'ziyeva, N.Karimov, X.Imomov, J.Karimqulov, Sh.Mustafakulov, B.Mamatov, A.Shomirovlarning ilmiy ishlarida investitsiya faoliyati tahlili va moliyalashtirish amaliyoti, investitsiya muhiti va uning jozibadorligini oshirish omillari, xorijiy investitsiyalarni keng ko'lamda jalg qilish, hududlarda investitsiya jarayonlarini faollashtirish masalalari bevosita va bilvosita tadqiq qilingan⁴.

Ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarga qaramasdan aynan xorijiy investitsiyalarni jalg etishda mamlakat investitsion jozibadorligini oshirish istiqbolli yo'nalishlari kompleks va tizimli tarzda to'liq o'r ganilmagan bo'lib, investitsion jozibadorlikka ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularni chuqur tadqiq etish asnosida ushbu jahbada aniqlangan muammolar yechimiga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif-tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mazkur dissertatsiya ishida tadqiq etilgan ilmiy-amaliy muammolar hamda ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning dolzarblik darajasini yanada oshiradi.

Dissertatsiya tadqiqotining oliy ta'lif muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalar bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent kimyo xalqaro universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasingning ITM-3 "Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo'nalishlari bilan bog'liq holda bajarilgan.

Elena A, Alexey V. Yumashev, Maria V.Yumasheva. The main directions of increasing the investment attractiveness of the Russian regions in the conditions of institutional transformations.// Revista ESPACIOS, Vol. 39 (Number 37) 2018. – P.12.; Dovhan Y. Assessment of the Investment Attractiveness (Survey of Ukraine, Vinnytsia Region, Oil and fat Industry).// Финансы, учёт, банки, №1 (21)\2016. –P.10;\ http://repository.vsa.org.; Mollah Aminul Islam, Haiyun Liu, Muhammad Asif Khan, Md Tariqul Islam, Md Reza Sultanuzzaman. Does foreign direct investment deepen the financial system in Southeast Asian economies?// Journal of Multinational Financial Management, 12 February 2021. – P.13. https://www.sciencedirect.com.; G.M.Galeeva and E.N.Kadeeva. Problems of attracting foreign direct investment into the regional economy.// Journal of Physics: Conference Series, 1730(2021) 012118, 2020. – P. 8. https://www.scopus.com.; Dolan E.D., Lindsey D.E. Рынок: микроэкономическая модель: Пер. с англ. – СПб.: «Экономика», 1992. – 496 с.; Keyns Dj. M. Общая теория занятости, процента и денег: пер. с англ. – М.: «Гегес АРВ», 1999. – 454 с.; Schumpeter J.A. Business cycles: a theoretical, historical, and statistical analysis of the capitalist process. - New York and London, McGraw-Hill Book, 1939.

⁴ Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: "Moliya", 2010. – 328 b.; Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliya. Darslik. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. – 800 b.; G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. Monografiya. – T.: "Moliya", 2003. – B. 26.; Nodir Jumaev. "Ways to attract investment with assessment of investment potential of the regions" International Journal of Economics, Commerce and Management United Kingdom Vol. VII, Issue 2, February 2019 Licensed under Creative Common Page 664, ISSN: 2348-0386 https://www.researchgate.net/publication/331231655.; Haydarov N.X. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalasi //I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya – 2003.; Qo'ziyeva N.R. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari //T.: BMA. – 2008. – T. 11.; Karimov N.G'. (2007) Iqtisodiy integrallashuv sharoitida investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish muammolar. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - 235 bet.; Imomov X.X. Investitsion muhitni yaxshilash va uni jozibadorligini oshirishni moliyaviy asoslari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taq. et. diss. avtoref. – T.: "TDIU", 2011. – 24 b.; Karimqulov J.I. Erkin iqtisodiy hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalg qilishni rivojlantirish yo'nalishlari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2019.; Mustafakulov Sh.I. Investitsion jozibadorlikning nazariy, metodologik va amaliy talqini. Monografiya. – T.: "Ma'naviyat", 2021. –352 b.; Mamatov B.S. va boshq. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2014. – 608 b.; A.Shomirov. "The role of IPO mechanisms in attracting investments to joint stock companies: necessity and prospects", "Interfinance": Vol. 2021: Iss. 1, Article 19. https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2021/iss1/19.

Tadqiqotning maqsadi innovatsion iqtisodiyot sharoitida mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb etishning mazmun-mohiyati va nazariy asoslarini tadqiq etish;

xorijiy investitsiyalarni jalb etishning normativ-huquqiy asoslarini olib berish;

iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda investitsiya jozibadorligini oshirishning xorij tajribalarini o'rganish va tahlil qilish;

investitsiya muhiti jozibadorligi va uning moliyaviy barqarorlikka ta'siri natijasida iqtisodiy salohiyatni baholash orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish amaliyotini tahlil qilish;

iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning iqtisodiy-moliyaviy shart-sharoitlarini hamda tendensiyalarini o'rganish;

xorijiy investitsiyalarni jalb etishda mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirishdagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini o'rganish;

O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasidagi mavjud investitsiya faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti mamlakatning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsiya jozibadorligini oshirish jarayonida sodir bo'ladigan iqtisodiy-moliyaviy munosabatlardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti davomida ilmiy sharhlash, nazariy ma'lumotlarni umumlashtirish va abstraksiyalash, statistik ma'lumotlarga dasturiy ta'minot orqali ishlov berish, kuzatish, tizimlashtirish, kuzatish, taqqoslash, induksiya va deduksiya kabi usullardan foydalilanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mamlakat investitsiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida yirik investitsiya loyihalari doirasida bank hisobraqamiga zaxira sifatida joylashtiriladigan loyiha qiymatining eng kam miqdorini 10 foizdan 1 foizgacha kamaytirish taklif etilgan;

strategik investitsiya loyihalari uchun alohida loyiha boshqaruvchilarini tayinlash orqali 50 mld. dollarlik investitsiya loyihalari bo'yicha muammolarni operativ tarzda hal qilish lozimligi taklif etilgan;

korporativ tuzilmalar investtsiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida ularning ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan taqdirda har bir strategik investitsiya loyihasi bo'yicha alohida loyiha boshqaruvchilarini tayinlash taklif etilgan;

investitsiya loyihalarini tanlash va dasturni shakllantrishda uning sifat ko'rsatkichlarini oshirish maqsadida PMBOK (Project Management Body of Knowledge) xalqaro standartini joriy etish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

iqtisodiyotda ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish, uning raqobatbardoshligini yanada oshirishda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va innovatsion texnologiyalarni jalb qilish zarurligi asoslangan;

mamlakat investitsiya muhitini yanada yaxshilash maqsadida strategik investitsiya fondlarini tashkil etish lozimligi asoslangan;

xorijiy investitsiyalarni jalg etish agentligi tizimida “yagona darcha” tamoyili asosida, “onlayn” rejimda faoliyat yurituvchi Investorlar markazini tashkil etish zaruriyati ochib berilgan;

investitsiyaviy muhit jozibadorligini yanada oshirish borasida loyiha boshqaruvi jarayonlarini xalqaro standartlarga joriy qilish zarurligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqotida olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlar bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, shuningdek, chiqarilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati izlanish natijasi asosida olingan ilmiy xulosalar, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar hududlarning investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishni takomillashtirish hamda ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuuni shakllantirish hamda iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida “Investitsiya va innovatsiya”, “Xorijiy investitsiya” kabi fanlarni o'qitishda qo'llanma sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalg etishda mamlakat investitsion jozibadorligini oshirish istiqbollari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mamlakat investitsiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida yirik investitsiya loyihalari doirasida bank hisobraqamiga zaxira sifatida joylashtiriladigan loyiha qiymatining eng kam miqdorini 10 foizdan 1 foizga kamaytirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-iyuldaggi PF-111-son “Ma'muriy islohotlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonini ishlab chiqilishida foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 19-fevraldaggi 02-11-1-1657-son ma'lumotnomasi). Natijada, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar doirasida yirik investitsiya loyihalari bo'yicha bank hisobraqamiga zaxira sifatida joylashtirilgan mablag‘lar miqdori 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 6,5 barobarga qisqarib, 120,4 mln. AQSh dollariga teng bo‘lgan.

strategik investitsiya loyihalari uchun alohida loyiha boshqaruvchilarini tayinlash orqali 50 mlrd. dollarlik investitsiya loyihalari bo'yicha muammolarni operativ tarzda hal qilish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PQ-72-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida”gi Qarorni ishlab chiqilishida foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 19-fevraldaggi 02-11-1-1657-son ma'lumotnomasi). Natijada, strategik ahamiyatdagi

loyihalar uchun xorijiy investitsiyalarni jalg qilish hamda ushbu loyihalarni loyihabay boshqarish va nazorat qilish tizimini takomillashtirish maqsadida 20 ta vazirlik va idoralarda loyiha ofislari tashkil etildi hamda 18 mlrd. dollarlik 28 ta investitsiya loyihalari bo‘yicha yuzaga kelgan muammolar bartaraf etilgan.

Korporativ tuzilmalar investsiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida ularning ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan taqdirda har bir strategik investitsiya loyihasi bo‘yicha alohida loyiha boshqaruvchilarini tayinlash taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-yanvardagi 16-son “O‘zbekiston Respublikasi investitsiya dasturini shakllantirish tizimini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorni ishlab chiqilishida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 19-fevraldagagi 02-11-1-1657-son ma’lumotnomasi). Natijada, umumiy qiymati 2,4 mlrd. AQSh dollariga teng investitsiya loyihalarining amalga oshirish samaradorligini oshirish, loyiha risklarini tizimli baholash, investitsiya jarayonlarini shaffof, izchil boshqarish maqsadida ISO xalqaro standartlari prinsiplari bosqichma-bosqich joriy etilgan.

Investitsiya loyihalarini tanlash va dasturni shakllantirishda uning sifat ko‘rsatkichlarini oshirish maqsadida PMBOK (Project Management Body of Knowledge) xalqaro standartini joriy etish to‘g‘risidagi taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-yanvardagi 16-son “O‘zbekiston Respublikasi investitsiya dasturini shakllantirish tizimini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorni ishlab chiqilishida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 19-fevraldagagi 02-11-1-1657-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyatga joriy etilishi natijasida investitsiya loyihalariga yo‘naltiriladigan mablag‘larni 10 foizga qisqartirishga erishildi, bu esa budget samaradorligini oshirish va xarajatlarning maqbulligini ta’minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta respublika va 4 ta xalqaro miqyosda o‘tkazilgan jami 9 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish, shu jumladan, OAK e’tirof etgan mahalliy jurnallarda 5 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 5 ta maqola, shuningdek, xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda 9 ta ma’ruza tezislari nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 165 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, asosiy vazifalari, obyekti hamda predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy, amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyatga joriy qilishning sinovdan o‘tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya

tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Xorijiy investitsiyalarni jalg etishda investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishning ilmiy-nazariy asoslari**” deb nomlangan bo‘lib, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalg etishning mazmun-mohiyati va nazariy asoslari, xorijiy investitsiyalarni jalg etishning normativ-huquqiy asoslari hamda iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalg qilishda investitsion jozibadorlikni oshirishning xorij tajribalari o‘rganilgan va xulosalar shakllantirilgan.

Globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda xorijiy investitsiyalarni jalg etish har qanday mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini ta’minalashda muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va umumiyligi iqtisodiy barqarorlikni ta’minalashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu bois, mamlakatlar raqobatbardosh iqtisodiy muhitni shakllantirish, qulay biznes sharoitlarini yaratish hamda investorlarga nisbatan ishonchli va prognoz qilinadigan siyosat yuritish orqali investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishga intilmoqda.

Mamlakatimizda ham keyingi yillarda xorijiy investitsiyalarni jalg etish borasida sezilarli ijobjiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Biroq, mavjud imkoniyatlar va resurslardan to‘liq foydalanish, global investitsion oqimlarda munosib o‘rin egallash uchun investitsion muhitni yanada takomillashtirish, huquqiy va institutsional islohotlarni chuqurlashtirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan, xorijiy investitsiyalarni jalg etishda mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish mexanizmlarini o‘rganish, ularning samaradorligini tahlil qilish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri sanaladi.

Xorijiy investitsiyalarni jalg etishda investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish bo‘yicha ko‘plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, professor T.M.Smaglyukova investitsion jozibadorlikni belgilovchi barcha ko‘rsatkichlardan kompleks baholash talablariga ko‘proq muvofiq keladigan ko‘rsatkichlarni ajratib oladi. Uning fikricha, mazkur ko‘rsatkichlar investitsion jarayonning barcha tomonlarini aks ettiruvchi investitsion jozibadorlik omillari tarkibiga kiritiladi. Shakllangan ko‘rsatkichlarning yig‘indisi iqtisodiy tizim va investitsiyalash obyektlari sifatida hududlar faoliyatining tashqi va ichki omillarini qamrab oladi⁵.

Avstraliyalik olimlar E.Sojli va W.Thamlarning fikricha, investitsiya muhiti qanchalik qulay bo‘lsa, investoring tadbirkorlik riski shunchalik past darajada bo‘lishi va bu investorlarning kirib kelishini faollashtirishini, aksincha, investitsiya muhiti noqulay bo‘lsa, risk darajasi yuqori bo‘lishi qayd etilgan. Bu esa, investitsiya qabul qiluvchi tomon surʼat-xarajatlarining o‘sishiga olib kelishini, shuningdek, investitsiya muhitining holati faqat investor uchun emasligi, balki investitsiya qabul qiluvchi uchun ham muhim⁶ ekanligini ta’kidlashgan.

⁵ Смаглюкова Т.М. Общие подходы к формированию региональной инвестиционной политики // Современные проблемы науки. – 2014. – №1.

⁶ Elvira Sojli, Wing Wah Tham. “The Impact of Foreign Government Investments: Sovereign Wealth Fund Investments in the United States” In Institutional Investors in Global Capital Markets. Published online: 8 March

Latviyalik olim Yurii A.Rolik o‘z tadqiqotida investitsion jozibadorlikni potensial investorga mavjud mablag‘larni investitsiya qilish maqsadida ma’lum bir investitsiya obyektini boshqalariga qaraganda qanchalik jozibador ekanligini baholashga imkon beradigan xususiyatlar to‘plami⁷ ekanligini aytib o‘tgan. Fikrimizcha, investor o‘z kapitalini safarbar etishdan avval, obyektlarni taqqoslaydi. Buning natijasida, investitsiya muhiti qanchalik qulay bo‘lsa, investorlarning qaror qabul qilish jarayoni shunchalik tezroq amalga oshadi.

MDHning qator olimlaridan O.Volik, O.Solntseva, Yu.Tsunaevalarning tadqiqot ishlarida investitsiyaviy jozibadorlikning oshishi zamonaviy raqobat sharoitida kompaniyaning samarali ishlashi, rivojlanishi va o‘sishiga yordam beruvchi asosiy faktor⁸ ekanligiga ko‘proq e’tibor qaratilgan. Darhaqiqat, investitsion jozibadorlikning oshishi – bu mamlakat hududida faoliyat olib borayotgan sanoat korxonalari, o‘rtta va kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish sifatini belgilab beradi.

Iqtisodchi olim A.Asaul o‘z ilmiy-tadqiqotlarida investitsiya muhitiga shunday ta’rif bergan: Investitsiya muhiti – investitsiya jarayonlarida kechadigan muhitdir. U mintaqada investitsiya faoliyati sharoitlarini va investitsiya riski darajasini belgilaydigan siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va boshqa omillar ta’sirida shakllanadi⁹. Fikrimizcha, investitsiya muhiti mamlakat siyosiy barqarorlik holati bilan chambarchas bog‘liq, qolaversa, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti ham investitsion muhit imidjini belgilab beradi.

Iqtisodchi N.Murashkoning fikricha, investitsion muhitni investitsion jozibadorlik va investitsion faolliksiz tasavvur etib bo‘lmaydi, bu tushunchalar o‘zaro bog‘liqlikda ishlashini¹⁰ qayd etgan. Fikrimizcha, bu tushunchalar bir-biri bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi, mamlakat investitsion siyosatini olib borishdagi strategik qarorlarni qabul qilishda investitsion muhit bilan birgalikda investitsiyaviy jozibadorlik va faollik parallel ravishda rol o‘ynaydi.

Professor, iqtisodchi olma S.Gutkevichning ilmiy qarashlarida, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda investitsiya jarayoni bozor konyunkturasi ta’siriga, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalariga va hajmiga bog‘liqligini¹¹ ta’kidlagan. Fikrimizcha, bozor konyunkturasi hammavaqt investitsion faollikni ta’minlovchi faktor sifatida qatnashib kelmoqda.

Mahalliy olimlardan, professor N.Jumayev investitsion jozibadorlikni ta’minlash va investitsiya salohiyatidan oqilona foydalanishda investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan mintaqaning imkoniyatlarini inobatga olish,

2015; 207-243.

⁷ Yurii A. Rolik. A Complex Approach to Evaluating the Innovation Strategy of a Company to Determine its Investment Attractiveness. // Procedia – Social and Behavioral Sciences, Volume 99, 6 November 2013, pages 562-571.

⁸ Волик Ольга Андреевна, Солнцева Оксана Глебовна, Цунаева Юлия Олеговна. Повышение инвестиционной привлекательности торговых предприятий. // Вестник университеты №6, 6; (2018).

⁹ Асаул А.Н. Формирование инвестиционного климата (опыт Петербургского региона). // «Экономика Украины»: Киев, №4. (2013).

¹⁰ Мурашко Н.Н. “Оценки инвестиционной привлекательности регионов Республики Беларусь и возможности ее прогнозирования”. МИДО БНТУ 2016. Стр.116.

¹¹ Svitlana Gutkevych. Investment Attractiveness of Industries: Features and Trends. // Baltic Journal of Economic Studies, vol. 5, № 3, 2019. P. 9.

ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmani innovatsion yangilashga yo‘naltirilgan investitsiya faoliyatini jadallashtirish, mintaqaviy tadqiqotlarning moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya darajasini oshirish va innovatsion investitsiyalarni jalb etishga qaratilganligini¹² alohida qayd etadi. Fikrimizcha, bu yondashuv bugungi kunda ayniqsa dolzarbdir, chunki investitsion jozibadorlikni oshirish nafaqat tashqi investorlarni jalb qilishga, balki mahalliy iqtisodiy resurslarni samarali safarbar etishga ham xizmat qiladi.

Professor N.Haydarov investitsiyalarga quyidagicha ta’rif bergan: “Investitsiya mulk shaklidan qat’i nazar, tadbirkorlik asosida faoliyat ko‘rsatayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida o‘z ixtiyoridagi moliyaviy, moddiy va intellektual boyliklarni qonun doirasida bo‘lgan har qanday tadbirkorlik obyektiga sarflashidir¹³”. Fikrimizcha, ushbu ta’rif investitsiyaning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatini ham o‘zida to‘liq ifodalaydi. Ya’ni investitsiyalar bu shunchaki kapital qo‘yilmasi emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi kompleks vositadir.

Professor S.Elmirzayevning ilmiy tadqiqot ishlarida mamlakatdagi kompaniyalar o‘z dividend siyosatida dividend va reinvestitsiya o‘rtasidagi me’yoriy nisbatni aniqlashi, minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilishi, aksiyalarning bozordagi narxlarining o‘sishiga erishishi, biznes faoliyatini kengaytirishi kabilar kompaniyalarning investitsion jozibadorligini oshirishga imkon berishini¹⁴ bayon etgan. Fikrimizcha, ushbu yondashuv kompaniya darajasidagi moliyaviy siyosatning strategik muhimligini yaqqol namoyon etadi. Xususan, dividend siyosatini oqilona yuritish orqali investorlarning ishonchini oshirish, korxonaning barqarorligini ta’minalash va aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish mumkin.

Professor J.Ataniyazovning tadqiqotlarida mamlakatimiz investitsiyaviy jozibadorligi, ya’ni makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minalash, xorijiy investorlar huquqlarini himoya qilishni kafolatlash va keng imtiyozlar tizimini yaratish bilan belgilanishini, bunday siyosat esa, o‘z navbatida, mamlakatga qo‘sishma xorijiy kapital bilan birga tajriba, yangi texnologiyalar kirib kelishiga xizmat qilishini va natijada ishlab chiqarish kengayishi, yangi ish o‘rnlari yaratilishi, aholining ish bilan banligi ta’minalishi hamda aholi daromadlari oshib borishini¹⁵ aytib o‘tadi. Fikrimizcha, bu kabi yondashuv investitsiyalarning strategik ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini chuqr ochib beradi. Ayniqsa, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda faqat kapital oqimini emas, balki bilimlar transferi, texnologik modernizatsiya va xalqaro menejment tajribasini mamlakat iqtisodiyotiga tatbiq etish imkoniyati mavjud.

¹² Nodir Jumaev. “Ways to attract investment with assessment of investment potential of the regions” International Journal of Economics, Commerce and Management United Kingdom Vol. VII, Issue 2, February 2019 Licensed under Creative Common Page 664, ISSN 2348 0386 <https://www.researchgate.net/publication/331231655>

¹³ Haydarov N.H. “Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari”. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2003. B. 29.

¹⁴ S.Elmirzayev. Rivojlangan mamlakatlarda dividend siyosati tahlili va Dividend Aristokratlari. // “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy-elektron журнали, №2, 2020. – B.11; <https://uzjournals.edu.uz/interfinance>

¹⁵ Jasurbek Xamidovich Ataniyazov. “Xorijiy investitsiyalar O‘zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining omili sifatida” Scholar ilmiy журнали, №7, 2023. – 4-9 b.

Iqtisodchi olim A.Shomirovning tadqiqotlariga ko‘ra, respublikamizda aksiyadorlik jamiyatlari qaysi sohada faoliyat ko‘rsatishidan qat’iy nazar, qo‘srimcha moliyaviy resurslarini joylashtirish, jumladan, xorijiy investitsiyalarni jalg qilish muhim vazifalardan biri ekanligi qayd etilgan. U aynan aksiyadorlik jamiyatlariga investitsiyalarni jalg qilishning eng zamonaviy usullaridan biri bu IPO mexanizmini qo‘llashdir¹⁶”, deya ta’kidlagan. Fikrimizcha, IPO orqali kapital bozorlariga chiqish nafaqat kompaniyaning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytiradi, balki uning ochiqlik, shaffoflik va ishonchhlilik darajasini ham oshiradi.

Yana bir iqtisodchi olim Sh.Mustafakulov investitsion muhit jozibadorligini quyidagicha ifodalagan, ya’ni: “Mamlakatning xo‘jalik rivojlanish sharoitlarini tavsiflovchi va undagi investitsion faollikning shakllanishiga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatadigan obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-geografik va ekologik ko‘rsatkichlarning umumiylarini darajasi¹⁷”, deb talqin qilgan. Fikrimizcha, investitsion jozibadorlikni baholashda faqat moliyaviy yoki yuridik omillar emas, balki yanada kengroq tizimli va kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.


Yuqoridagilarni umumlashtirib xorijiy investitsiyalarni jalg etishda investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishning mazmun-mohiyatini ifodalovchi quyidagicha ta’rifni shakllantirishni maqsadga muvofiq deb bildik. Fikrimizcha, xorijiy investitsiyalarni jalg etishda investitsion jozibadorlikni oshirish – bu mamlakat yoki mintaqaning iqtisodiy, huquqiy, institutsional va ijtimoiy muhitini xorijiy investorlar uchun qulay va raqobatbardosh holga keltirishga qaratilgan choratadbirlar majmuasidir. Bu jarayon investorlarga soliq va bojxona imtiyozlarini taqdim etish, ularning huquqlarini kafolatlash, zamonaviy infratuzilmani rivojlanish, shuningdek, inson kapitali va innovatsion salohiyatdan samarali foydalanish orqali amalgalashiradi, deb ta’riflash mumkin.

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida xorijiy investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy investitsiyalar mamlakatlarga nafaqat moliyaviy resurslarni, balki ilg‘or texnologiyalar, boshqaruv tajribasi va xalqaro bozorlar bilan aloqalarni ham olib kiradi. Shu bois, har bir davlat uchun investitsion jozibadorlikni oshirish, qulay va xavfsiz investitsiya muhiti yaratish katta ustuvor vazifa hisoblanadi.

Investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish orqali mamlakatlar turli investitsiya shakllarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar, portfel investitsiyalari, loyihibor hamkorligi kabi jalg qilishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida iqtisodiy o‘sish, yangi ish o‘rinlari yaratish, texnologik yangilanish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Xorijiy investitsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi roli beqiyosdir. Ular iqtisodiy o‘sishni tezlashtirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, eksport salohiyatini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish va mamlakatning xalqaro maydonidagi raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, xorijiy investitsiyalarni jalg etishda investitsion jozibadorlikni oshirish masalalari mamlakatimiz uchun ham dolzarb va ustuvor hisoblanadi (1-rasm).

¹⁶ Shomirov Aziz. “The role of IPO mechanisms in attracting investments to joint stock companies: necessity and prospects”, International Finance and Accounting: Vol. 2021: Iss. 1, Article 19.

¹⁷ Mustafakulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi. – T.: Baktria press, 2017. – 18-b.



1-rasm. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishda investitsion jozibadorlikni oshirishning xususiyatlari, jalb qilish shakllari va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi roli¹⁸

¹⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.


Xorijiy investitsiyalarni jalg etishda investitsion jozibadorlikni oshirish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi omillardan biridir. Tadqiqot natijalarini shuni ko'rsatdiki, qonunchilik bazasining mustahkamligi, siyosiy va iqtisodiy barqarorlik, rivojlangan infratuzilma va malakali mehnat resurslari xorijiy investorlar uchun qulay sharoit yaratadi. Shu bilan birga, investitsiyalarni jalg qilish shakllarining xilma-xilligi va samarali boshqarilishi mamlakat iqtisodiyotining turli sohalarida ijobjiy o'zgarishlarni rag'batlantiradi. Xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o'sishni tezlashtirish, yangi ish o'rinnari yaratish, texnologik yangilanish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun davlat tomonidan investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan siyosatni davom ettirish, investorlarning manfaatlarini himoya qilish va investitsion muhit sifatini yaxshilash muhimdir. Natijada, xorijiy investitsiyalarni jalg etishda investitsion jozibadorlikni oshirish nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, balki ijtimoiy taraqqiyotga ham sezilarli hissa qo'shadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xorijiy investitsiyalarni jalg etishda investitsion jozibadorlikni oshirish davlatlarning iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Investitsion jozibadorlik bu mamlakatning xorijiy investorlar uchun qulay, xavfsiz va istiqbolli investitsiya muhiti yaratish qobiliyatidir. U siyosiy va iqtisodiy barqarorlik, qonunchilikning ishonchliligi, infratuzilmaning rivojlanganligi hamda malakali mehnat resurslari mavjudligi kabi omillar bilan belgilanadi.

Dissertatsiyaning "**Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalg etishda mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirishning amaldagi holati tahlili**" deb nomlangan ikkinchi bobida milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalg qilish amaliyoti tahlili, iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilishning iqtisodiy-moliyaviy shart-sharoitlari tahlili, investitsion muhit va unga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan.


Global iqtisodiy muhitning o'zgarishi va xalqaro bozorlarning kengayishi sharoitida mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida xorijiy investitsiyalarni jalg etish muhim strategik vazifaga aylangan. Xorijiy investitsiyalar nafaqat qo'shimcha moliyaviy resurslar manbasi, balki innovatsiyalar, yangi texnologiyalar va boshqaruv tajribasini mamlakat iqtisodiyotiga olib kiradi. Shu bois, har bir mamlakat o'zining investitsion jozibadorligini oshirishga, investorlar uchun qulay va barqaror muhit yaratishga katta e'tibor qaratadi. Mamlakat investitsion jozibadorligi bu xorijiy investitsiyalarni jalg etishdagi muvaffaqiyatning asosiy ko'rsatkichidir. Uning darajasi siyosiy barqarorlik, qonuniy baza, iqtisodiy infratuzilma, soliq va moliyaviy siyosat, shuningdek, mehnat resurslari sifatiga bog'liq.

2-rasm ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, O'zbekistonda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 2024-yilda 2018-yilga nisbatan 2,5 barobarga yoki 23,6 mlrd. AQSh dollarga ortgan holda, 39,0 mlrd. AQSh dollariga yetgan. Investitsiya oqimlarining keskin oshishi, avvalo, strategik infratuzilmaviy loyihibalar, sanoat korxonalari va raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqarish zanjirlarini rivojlantirish bilan bog'liqdir.



**2-rasm. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar,
(mln. AQSh dollarida)¹⁹**

O'zbekiston Respublikasida o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 2018–2024-yillar davomida sezilarli darajada o'sgan. 2018-yilda bu ko'rsatkich 3,7 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib, 24,5 mlrd. AQSh dollariga yetdi. Bu esa mazkur davr mobaynida xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmining qariyb 6,6 barobar oshganini ko'rsatadi (3-rasm).



3-rasm. O'zbekiston Respublikasida o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar, (mln. AQSh dollarida)²⁰


Xorijiy investitsiyalar oqimining ortishi mamlakatda sanoat, energetika, transport, infratuzilma, axborot texnologiyalari va boshqa strategik tarmoqlarning modernizatsiyasini jadallashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bu esa iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqarorlashtirish va barqaror rivojlanishga zamin yaratmoqda.

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Bundan tashqari, xalqaro reyting agentliklari tomonidan mamlakatning kredit reytinglarida kuzatilgan ijobiy siljishlar ham kapital jalg qilish imkoniyatlarini kengaytirgan. Ushbu holat mamlakatda investitsion muhitning yaxshilanishi, institutsional islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi hamda xorijiy va mahalliy investorlar uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar samarasidan dalolat beradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga 2018-yilda 1,13 mlrd. AQSh dollari miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya jalg qilingan. Bu davr investitsiyaviy muhitni yaxshilash va iqtisodiy islohotlarni boshlash bilan bog‘liq bo‘lgan. Hukumat tomonidan amalga oshirilgan soliq imtiyozlari va investorlar uchun yaratilgan qulay sharoitlar xorijiy sarmoyadorlar e’tiborini tortgan. 2019-yilda xorijiy investitsiyalar hajmi keskin o‘sib, 4,31 mlrd. AQSh dollariga yetgan. Bu o‘sish yirik infratuzilma loyihalari, sanoat korxonalarining modernizatsiyasi va xalqaro hamkorlik doirasida amalga oshirilgan loyihalar bilan izohlanadi. Xususan, energetika va transport sektorlarida xorijiy sarmoya hisobiga ko‘plab yangi loyihalar ishga tushirilgan. Investitsiya qonunchiligining takomillashuvi va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining rivojlanishi ham sarmoyadorlarning ishonchini mustahkamlashga xizmat qilgan. 2020-yilda pandemiya ta’siri tufayli global iqtisodiy inqiroz kuzatilgan bo‘lsa-da, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarini jalg qilishda barqarorlikni saqlab qolgan. Ushbu yilda investitsiyalar hajmi 2,9 mlrd. AQSh dollarga yetgan, bu esa kichik, lekin ijobiy o‘sishni ko‘rsatadi.



4-rasm. Milliy iqtisodiyotga o‘zlashtirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (mln. AQSh dollarida)²¹

4-rasmda keltirilgan ma’lumotlar asosida aytish mumkin-ki, 2024-yilda milliy iqtisodiyotga o‘zlashtirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 11,9 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan. 2024-yilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi: 2018-yilga nisbatan 10,5 barobarga; 2019-yilga nisbatan 2,8 barobarga; 2020-yilga nisbatan 4,0 barobarga; 2021-yilga nisbatan

²¹ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

4,2 barobarga; 2022-yilga nisbatan 3,3 barobarga; 2023-yilga nisbatan 1,5 barobarga oshgan.

TTXI hajmining izchil o'sishi O'zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini chuqurlashtirib, mamlakatni mintaqaviy investitsiyaviy markazlardan biriga aylantirish yo'lida muhim bosqich hisoblanadi. Shuningdek, yirik investitsiya loyihalari doirasida bank hisobraqamiga zaxira sifatida ajratiladigan mablag' miqdorining 10 foizdan 1 foizgacha qisqartirilishi esa O'zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, investorlar uchun moliyaviy to'siqlarni kamaytirish va raqobatbardosh iqtisodiy muhitni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval

2018–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha yirik investitsiya loyihalarida bank hisobraqamiga zaxira sifatida joylashtirilgan mablag'lar miqdori²²

| Yillar | TTXI hajmi (mlrd. AQSh dollarida) | Zaxira hajmi (mln. AQSh dollarida) |
|----------|-----------------------------------|------------------------------------|
| 2018-yil | 1,1 | 113,3 |
| 2019-yil | 4,3 | 431,7 |
| 2020-yil | 3,0 | 295,2 |
| 2021-yil | 2,8 | 281,9 |
| 2022-yil | 3,6 | 359,7 |
| 2023-yil | 7,7 | 773,8 |
| 2024-yil | 11,9 | 119,0 |

2018–2023-yillar davomida O'zbekistonga jalg qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar doirasidagi yirik loyihalarda bank hisobvaraqlarida zaxira sifatida saqlangan mablag'lar umumiyligi investitsiya miqdorining 10 foizini tashkil etgan. Bu holat, bir tomonidan, investorlar tomonidan moliyaviy xavflarni minimallashtirishga qaratilgan ehtiyyot chorasi bo'lsa-da, boshqa tomonidan, mavjud moliyaviy resurslardan to'liq va optimal foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi. Biroq, 2024-yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha yirik investitsiya loyihalarida bank hisobraqamiga zaxira sifatida joylashtirilgan mablag'lar ulushi 10 foizdan 1 foiz miqdorgacha pasaytirilib, 11,9 mlrd. AQSh dollar TTXI bo'yicha zaxira sifatida 119,0 mln. dollar qoldirilgan. Bu holat investitsiyalarning bevosita ishlab chiqarish va kapital infratuzilmaga yo'naltirilganini anglatadi.

Shu munosabat bilan, mavjud moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlovchi institutsional yondashuvlarni joriy etish, investitsiya siyosatidagi mavjud muammolarni minimallashtirish va loyihalarni amalga oshirish jarayonlarini tezlashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Bunday yondashuv O'zbekistonda investitsion muhit barqarorligini mustahkamlash, investorlar ishonchini yanada

²² O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

oshirish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qilmoqda. Xususan, xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan qulayliklar, soliq va bojxona imtiyozlari hamda erkin iqtisodiy zonalarning faoliyati investitsion faollikni oshirmoqda. Biroq, ayrim sohalarda hali ham muammolar va infratuzilma yetishmovchiligi mavjud bo'lib, bu holatlar sarmoya kiritish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, investitsion muhitni baholash va unga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish iqtisodiy siyosatni samarali yo'naltirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi investitsion jozibadorligining SWOT tahlili²³

| Kuchli tomonlar (Strengths) | Kamchiliklari (Weaknesses) |
|--|---|
| <ul style="list-style-type: none"> Siyosiy barqarorlik; Oxirgi yillarda mamlakatimizda 60 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi. Xalqaro moliya institutlarining 14 milliard dollarдан ortiq mablag'lari ijtimoiy va infratuzilma sohalariga jalb qilindi; O'zbekiston – mineral resurslar va o'ta muhim metallarning katta bazasiga ega mamlakatdir. Yurtimizda oltin, mis, volfram, kumush, uran, 30 dan ortiq kamyob metallarning ulkan zaxiralari mavjud; To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan holda tashkil etilgan va tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslarga yer solig'i, mulk solig'i va suvdan foydalanish solig'idan ozod qilish shaklidagi soliq imtiyozlari beriladi; Investorlarga soliqlar va to'lovlarini to'lash sharti bilan chet el valyutasidagi mablag'larni O'zbekiston Respublikasiga va O'zbekiston Respublikasidan cheklolvatsiz erkin o'tkazish, shu jumladan, valyutani repatriatsiya qilish uchun ayirboshlash kafolatlanadi | <ul style="list-style-type: none"> Investitsiya jarayonlari ishtirokchilarini tomonidan shartnoma majburiyatlarini bajarish intizomining pastligi; Ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lardan samarasiz foydalanish holatlarining mayjudligi; O'zbekistonda bunday intellektual mulkni himoya qilish yetarli darajada mukammal emasligi; Yirik aksiyadorlik jamiyatlari, tadbirkorlik subyektlari ustavida davlat ulushining yuqoriligi; Mahalliy va xorij investorlari o'rtasida o'zar o'mloqot yetishmasligi; Ma'lum hududga oid ishonchli statistik ma'lumotlarning taqdim etilmasligi; Byurokratik to'siqlar, mulk daxlsizligi kafolatlanmaganligi; Infrastrukturaviy muammolar, beqaror biznes muhiti, investitsion loyihalarning sifat darajasi |
| Imkoniyatlar (Opportunities) | Tahdidlar (Treats) |
| <ul style="list-style-type: none"> Boy mineral va tabiiy resurslar bazasi; Malakali mehnat va intellektual salohiyat; Kapital bozorini rivojlantirish, shu jumladan, xorijiy investorlarning talablariga to'liq javob beradigan xalqaro moliya markaziga aylantirish; Mas'uliyatli biznes yuritish, iqtisodiyot barqarorligi, shaffofligi va ochiqligini ta'minlashga qaratilgan tamoyillarni keng joriy etish; Muqobil investitsiyalar va ularni rag'batlantirish shu jumladan, startap, innovatsion loyihalar, birgalikdagi sarmoyalarni ko'paytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida muqobil (venchur) investitsiyalar bo'yicha qonun loyihasini ishlab chiqish; Investorlar bilan ishlash tizimini raqamlashtirish, jumladan, xorijiy investorlar bilan davlat organlari o'rtasidagi barcha xizmatlarni amalga oshirish uchun mukammal elektron platformani ishlab chiqish | <ul style="list-style-type: none"> Valyuta kursi bilan bog'liq risklar; Geosiyosiy, keskinliklarning yuzaga kelishi; Mamlakatlarning bir-biriga bog'liqligi yuqori bo'lgan globallashuv sharoitida global tendensiyalar O'zbekistonning investitsiya muhitiga u yoki bu yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi. Bunday o'zgarishlarga imkon qadar samarali moslashish mamlakat hukumati tomonidan puxta ishlab chiqilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishni talab etadi |

Tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan SWOT tahlilida ko'rishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasining investitsion jozibadorligini belgilab beruvchi asosiy

²³ Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tayyorlandi.

va muhim omillardan biri sifatida qaraladigan siyosiy barqarorlikni kelajakka ishonch va jamiyatning barcha sohalaridagi islohotlarning ishonchlilagini yutuq tariqasida e'tirof etish joizdir. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda investitsion jozibadorlikni oshirish dolzarb strategik vazifa bo'lib, bu borada O'zbekistonda so'nggi yillarda ijobjiy o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Dissertatsiyaning "**Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda mamlakat investitsiyaviy jozibadorligini oshirishning istiqbolli yo'nalishlari**" deb nomlangan uchinchi bobida xorijiy investitsiyalarni jalb etishda mamlakat investitsion jozibadorligini oshirishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari hamda iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirish istiqbollari tadqiq etilib, ushbu bobning yakunida ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Bugungi globallashuv jarayonida har bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti xorijiy investitsiyalarni jalb qilish darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Xorijiy investitsiyalar nafaqat iqtisodiyotga qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb etadi, balki ilg'or texnologiyalarni olib kirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangi ish o'rinnari yaratishda ham muhim o'rinn tutadi. Shu bois, investitsion jozibadorlikni oshirish har bir davlat uchun strategik ustuvor yo'nalish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda xorijiy investorlar uchun ochiq va qulay muhit yaratish, investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha izchil islohotlarni amalga oshirmoqda. Soliq yengilliklari, soddashtirilgan litsenziyalash jarayonlari, maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etilishi va xorijiy investitsiyalarni himoya qilishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar bu boradagi muhim qadamlar bo'ldi. Shunga qaramay, xorijiy investitsiyalarni yanada ko'paytirish uchun mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, raqobatbardosh ustunliklarni to'g'ri targ'ib qilish va yangi, istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Xususan, yashil iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, agrosanoat, logistika va turizm kabi sohalar investitsiyalarni jalb etishda muhim salohiyatga ega.

Mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda investitsion jozibadorlikni oshirish muhim strategik vazifa hisoblanadi. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, investitsion muhitni yaxshilash, yirik investitsiya loyihalari uchun talab qilinadigan minimal hisobraqam miqdorini kamaytirish va strategik loyihalar uchun alohida loyiha boshqaruvchilarini tayinlash kabi choralar, mamlakatimizga yanada ko'proq sarmoya jalb etish imkonini yaratadi. Xususan, 2024-yilda yangi investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha 20 ta davlat idoralarida loyiha ofislari tashkil etilib, loyiha ofislariiga tayinlangan menejerlar tomonidan umumiyligi qiymati 18 mlrd. dollarlik 28 ta investitsiya loyihalari bo'yicha yuzaga kelgan muammolar bartaraf etilishiga erishildi. Investitsion jozibadorlikni oshirish orqali xorijiy investorlarning mamlakatga bo'lgan ishonchi ortadi, investitsiya hajmi ko'payadi, natijada iqtisodiy o'sish va ijtimoiy taraqqiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, samarali loyiha boshqaruvi loyihalarning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlab, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan investitsiya va infratuzilma loyihalarini xalqaro me’yoriy talablarga muvofiq tashkil etish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoxda. Xalqaro standartlar loyihaning har bir bosqichida aniq va puxta boshqaruvni ta’minlaydi. Bu esa: resurslardan samarali foydalanish, loyiha muddatlarini va budgetini nazorat qilish, kutilmagan xatoliklar va muammolarni kamaytirishga imkon beradi. Natijada, investitsiya loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

Xalqaro standartlarga asoslangan boshqaruv: loyiha jarayonlarining shaffofligini ta’minlaydi, investorlar uchun xavfsizlik kafolatlarini oshiradi, moliyaviy va operatsion xatoliklar, firibgarliklar xavfini kamaytiradi. Bu esa yangi va mavjud investorlarning mamlakatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Jumladan, loyiha boshqaruvi sohasida tan olingan xalqaro standartlardan biri – ISO 21500: “Loyihalar, dasturlar va portfellarning boshqaruvi bo‘yicha yo‘riqnomasi” asosida loyiha faoliyatini rejalashtirish, amalga oshirish va nazorat qilish amaliyotga joriy etilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, loyiha jarayonlarining shaffofligini, samaradorligini va natijadorligini ta’minalashga xizmat qilmoqda (3-jadval).

3-jadval

O‘zbekistonda xalqaro standartlar (ISO 21500 - loyihalar, dasturlar va portfellarning boshqaruvi) asosida amalga oshirilayotgan loyihalar²⁴

| Nº | Loyiha nomi | Muddati | Qiymati | Samaradorlik / Izohlar |
|----|--|-------------------------------|---|--|
| 1. | Talimardon–Sirdaryo elektr stansiyasi modernizatsiyasi | 2018–2024 | 450 mln. AQSh dollari (OTB) | Elektr ishlab chiqarish hajmi 25 foizga oshdi, zamonaviy boshqaruv tizimi joriy etildi |
| 2. | “Digital Uzbekistan 2030” (Elektron hukumat loyihalari) | 2020–2025 (bosqichma-bosqich) | 300 mln. AQSh dollari (UNDP, Koreya, Rossiya) | Onlaysiz xizmatlar soni 4 baravarga oshdi, ma’lumotlar xavfsizligi yaxshilandi |
| 3. | Toshkent City biznes markazi qurilishi | 2017–2024 | 1 mlrd. AQSh dollari (xususiy va xorijiy investitsiyalar) | 70 mingdan ortiq ish o‘rnini yaratildi, zamonaviy boshqaruv uslublari qo’llandi |
| 4. | Uzbekistan Digital Inclusion Project (IT Park) | 2024–2029 | 50 mln. AQSh dollari (World Bank) | 6 000+ yoshlar IT bo‘yicha o‘qitiladi, 25 000 ish o‘rnini yaratiladi |
| 5. | Geospatial Data Improvement Project | 2025–2030 | 35 mln. AQSh dollari (World Bank) | 80 CORS stansiya, 3D shahar modellari, geodata markazlari tashkil etiladi |
| 6. | MUNIS – Innovatsion xizmat ko‘rsatish tizimi | 2022–2024 | World Bank grant | Test, monitoring va xizmat sifatini baholash ISO 21500 prinsiplariga asoslangan |
| 7. | “Yashil energetika” – Quyosh elektr stansiyalari (Navoi, Jizzax) | 2021–2025 | 550 mln. AQSh dollari (Masdar, OTB) | 900+ MVt quvvatli quyosh EES, uglerod chiqindisi kamayishi, ekologik barqarorlik |
| 8. | Sifat menejmenti va ERP tizimi – “O‘zbekneftegaz” | 2023–2025 | 30 mln. AQSh dollari (ichki mablag‘lar) | Korxonalarda ERP tizim joriy qilinmoqda, boshqaruv avtomatlashirilmoqda |

Energetika, raqamli infratuzilma, urbanizatsiya va davlat xizmatlari sohalarida amalga oshirilayotgan loyihalarning ko‘pchiligi xalqaro moliyaviy institutlar – Osiyo Taraqqiyot Banki, Jahon banki, BMT rivojlanish dasturi (UNDP) va xorijiy investorlar bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. Bunda loyiha boshqaruv,

²⁴ Muallif ishlanmasi.

monitoringi va natijadorlik baholash jarayonlariga zamonaviy yondashuvlar tafbiq etilmoqda. Xususan, “Digital Uzbekistan 2030”, “Uzbekistan Digital Inclusion Project”, “Geospatial Data Improvement” kabi loyihalar orqali raqamli infratuzilmani kengaytirish, axborot xavfsizligini mustahkamlash va yosh avlodni IT sohasiga jalb qilishga qaratilgan tizimli choralar ko‘rilmoxda. Shu bilan birga, “MUNIS” loyihasida xizmat ko‘rsatish tizimi sifatining baholanishi bevosita ISO 21500 standartlari asosida amalga oshirilayotgani O‘zbekistonda xalqaro loyiha boshqaruvi tamoyillarining amaliyotda qo‘llanilayotganidan dalolat beradi.

Boshqa tomondan, “Talimarjon–Sirdaryo” elektr stansiyasining modernizatsiyasi, “Yashil energetika” dasturi doirasidagi quyosh EES loyihalari va “O‘zbekneftegaz”da ERP tizimlarini joriy etish kabi tashabbuslar sanoat va ekologiya sohalarida ham innovatsion yondashuvlar asosida amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi. Ushbu loyihalarning har biri ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, uglerod chiqindilarini kamaytirish yoki boshqaruvi tizimlarini avtomatlashtirish orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Loyiha boshqaruvi jarayonlarini xalqaro standartlarga asoslab joriy etish mamlakatda investitsion muhitni sifat jihatdan yaxshilash, loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshishini ta’minlash, investorlarda ishonchni oshirish va global maydonda raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkonini beradi. Shu orqali O‘zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligi sezilarli darajada oshadi.

PMBOK (Project Management Body of Knowledge) loyiha boshqaruvi sohasidagi eng keng qamrovli xalqaro standart bo‘lib, loyiha jarayonlarini aniq, tartibli va tizimli boshqarishni ta’minlaydi. Bu: investitsiya loyihalarini tanlashda aniq mezonlar va jarayonlarni belgilash, har bir loyihaning samaradorligini va risklarini puxta baholash, dasturni shakllantirishda optimal resurs taqsimoti va ustuvorliklarni aniqlash imkonini beradi. PMBOK loyihalarni boshqarishning barcha jihatlarini (muddat, budget, sifat, resurslar, risklar va boshqalar) qamrab oladi. Shu sababli: loyihaning sifatlari va o‘z vaqtida amalga oshirilishi kafolatlanadi, investitsiya loyihalarning natijadorligi oshadi, investitsiya samaradorligi va ijobjiy iqtisodiy ta’sir ko‘rsatkichlari yaxshilanadi. Investitsiya loyihalarini tanlash va dasturni shakllantirishda PMBOK xalqaro standartini joriy etish sifat ko‘rsatkichlarini oshirish, loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshishini ta’minlash, risklarni samarali boshqarish va investorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu orqali mamlakatning investitsion jozibadorligi va iqtisodiy barqarorligi sezilarli darajada oshadi.

PMBOK standarti loyihalarni boshqarishda tizimli va standartlashtirilgan yondashuvni taklif etadi. Ushbu yondashuv besh asosiy jarayonlar guruhiba bo‘linadi: boshlash, rejallashtirish, ijro etish, monitoring va nazorat hamda yakunlash. PMBOK yondashuvni loyihalarni izchil, samarali va natijaga yo‘naltirilgan tarzda boshqarishga xizmat qiladi. Mamlakatimizda PMBOK standarti asosida loyihalarni joriy etish jarayoni bosqichma-bosqich kengayib bormoqda. So‘nggi yillarda yirik infratuzilma, energetika, raqamli texnologiyalar va davlat boshqaruvi sohalarida amalga oshirilayotgan loyihalarda loyiha boshqaruvi bo‘yicha xalqaro standartlarga riona qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonning turli sohalarida amalga oshirilayotgan loyihalarda PMBOK standarti asosidagi yondashuvlar tobora keng qo‘llanilmoqda. Xususan, MUNIS va raqamli soliq boshqaruvi kabi loyihalarda rejalashtirish, muddatlar, xavflar va aloqa boshqaruvi tizimlashtirilib, loyiha samaradorligi sezilarli oshgan. Bu loyihalarda KPI tizimi joriy etilib, loyiha monitoringi va xavflarni nazorat qilish imkoniyati kuchaygan.

Energetika va ekologiya sohalaridagi loyihalarda ham PMBOKning xaridlar, sifat va manfaatdor tomonlarni boshqarish kabi bilim sohalari orqali sustliklar bartaraf etilgan. Masalan, elektr uzatish infratuzilmasida materiallar sifati yaxshilanib, ish muddati 25 foizga qisqargan, “Yashil shahar” tashabbusida esa xavfli zonalar kamayib, fuqarolik ishtiroki kuchaygan.

4-jadval

PMBOK asosida amalga oshirilayotgan loyihalar samaradorligi²⁵

| Nº | Loyiha nomi | Soha | PMBOK bilim sohalari | PMBOK joriy etilishidan avvalgi holat | PMBOK joriy etilgandan keyingi holat | Kutilgan samaradorlik |
|----|--|------------------------------|---|--|---|---|
| 1. | MUNIS – Innovatsion universitetlarni rivojlantrish (RCP granti) | Ta’lim va ilm-fan | Scope, Time, Risk, Integration Management | Loyiha muddatlarining cho‘zilishi, natijalarning noaniqligi (KPI’lar mavjud emas) | Ish jadvali asosida monitoring yo‘lga qo‘yilgan, xavflarni boshqarish rejası ishlab chiqilgan | Loyihani amalga oshirish muddati 15-20 foizga qisqardi hamda sifat nazorati samaradorligi oshdi |
| 2. | Raqamli soliq boshqaruvi loyihasi | Moliya / IT | Quality, Cost, Communications Management | Xarajatlarning me’yordan oshib ketishi, loyiha bajarilishi rejalashtirilgan vaqt jadvalidan kechikishi | Loyihani monitoring qilish tizimi mavjud, manfaatdor tomonlar bilan aloqalar yaxshilangan | Loyiha byudjeti 10 foizga tejaldi |
| 3. | Elektr energiyasi uzatish infratuzilmasini modernizatsiya qilish (ADB bilan hamkorlikda) | Energetika | Procurement, Time, Quality Management | Xarid jarayonlarida kechikishlar, past sifatli materiallar | Bozor tahliliga asoslangan xaridlar, vaqt asosida rejalashtirish | Elektr energiyani yetkazib berish sifati yaxshilandti va muddati 25 foizga tezlashdi |
| 4. | “Yashil shahar” tashabbusi – Toshkent shahri (UNDP ishtirokida) | Ekologiya / Urbanizatsiya | Risk, Resource, Stakeholder Management | Turli manfaatlar to‘qnashuvi, qarorlar qabul qilishda sustlik | Har bir bosqichda xavflarni aniqlash va tahlil qilish mexanizmi ishlab chiqilgan | Xavfli hududlar 40 foizga qisqardi, fuqarolik ishtiroki kuchaydi |
| 5. | Yoshlar startaplarni qo‘llab-quvvatlash dasturi (Innovatsion rivojlanish agentligi) | Iqtisodiyot / Innovatsiyalar | Scope, Schedule, Integration Management | Loyihalar muvofiqlashmagan, natijalarning samaradorligi past bo‘lgan | Aniq loyiha tavsiyi, jadvalga asoslangan rejalashtirish va monitoring joriy etildi | Muvaffaqiyatl yakunlangan loyihalar ulushi 35 foizga yetdi, sifat ko‘rsatkichlari oshdi |

Innovatsion rivojlanish yo‘nalishidagi startaplarni qo‘llab-quvvatlash dasturida PMBOK yondashuvi asosida loyiha tavsiyi, jadval asosida rejalashtirish va

²⁵ Mualluf ishlanmasi.

integratsiya mexanizmlari joriy etilishi orqali muvaffaqiyatli yakunlangan loyihamalar ulushi 35 foizga yetgan. Bu esa PMBOK standartining O'zbekistonda samarali natijalar berayotganidan dalolat beradi.

PMBOK standartining joriy etilishi mamlakatda loyiha boshqaruv madaniyatini shakllantirish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va investitsiyalar samaradorligini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Ayni vaqtda yirik davlat loyihamalarini boshqarishda loyiha ofislari tashkil etilmoqda, ular orqali loyiha jarayonlari PMBOK asosidagi metodologiya bilan muvofiqlashtirilmoqda. Shu bilan birga, loyiha menejerlari va texnik mutaxassislar uchun xalqaro sertifikatlash va malaka oshirish kurslari yo'lga qo'yilmoqda. Natijada, loyiha faoliyatida shaffoflik, hisobotlilik va samaradorlik sezilarli darajada ortmoqda, bu esa umumiy iqtisodiy o'sish va innovatsion rivojlanishga zamin yaratmoqda.

Xulosa qiladigan bo'lsak, xorijiy investitsiyalarni jalb etishda mamlakat investitsion jozibadorligini oshirish iqtisodiy o'sish va rivojlanish uchun muhim omil hisoblanadi. Buning uchun barqaror huquqiy asos, rivojlangan infratuzilma, soliq va moliyaviy rag'batlar, malakali mehnat resurslari hamda siyosiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash zarur. Shu bilan birga, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va bozor imkoniyatlarini kengaytirish orqali mamlakat o'zining raqobatbardoshligini mustahkamlashi mumkin. Bu yo'nalishlarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar xorijiy investitsiyalarni samarali jalb qilib, milliy iqtisodiyotning barqaror va uzoq muddatli rivojlanishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda mamlakat investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishda investitsion jozibadorlikni oshirish – mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omildir. Buning uchun qulay huquqiy muhit yaratish, soliq va moliyaviy imtiyozlar taqdim etish, infratuzilmani rivojlantirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish va malakali ishchi kuchini tayyorlash kabi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Ana shunda mamlakat xorijiy investorlar uchun ishonchli va jozibador hamkor sifatida namoyon bo'ladi.

2. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim omil bo'lib, u ishlab chiqarish hajmini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, yangi ish o'rinalarini yaratish va eksport salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Investitsion jozibadorlikni oshirish uchun qulay huquqiy va institutsional muhit yaratish, soliq va bojxona yengilliklari, barqaror siyosiy-iqtisodiy sharoit, rivojlangan infratuzilma va malakali ishchi kuchi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, sarmoyadorlar bilan ochiq va samarali muloqotni yo'lga qo'yish, ma'muriy to'siqlarni kamaytirish hamda xalqaro investitsiya shartnomalari va reytinglarda ishtiroy etish orqali mamlakatning investitsion imijini yaxshilash talab etiladi. Shu tariqa, kompleks va tizimli yondashuv asosida olib borilgan islohotlar xorijiy investorlar ishonchini oshirib, iqtisodiy o'sish va barqaror taraqqiyotga zamin yaratadi.

3. Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida yirik investitsiya loyihalari doirasida hisob raqamga joylashtiriladigan loyiha qiymatining eng kam miqdorini kamaytirish taklif etilgan; amalga oshirilishi belgilangan strategik investitsiya loyihalari uchun alohida loyiha boshqaruvchilarini tayinlash taklif etilgan; investitsiyaviy muhit jozibadorligini yanada oshirish borasida loyiha boshqaruvi jarayonlarini xalqaro standartlarga asoslanib joriy etish taklif etilgan; investitsiya loyihalarini tanlash va dasturni shakllantirishda uning sifat ko'rsatkichlarini oshirish maqsadida PMBOK (Project Management Body of Knowledge) xalqaro standartini joriy etish taklif etilgan.

4. So'nggi yillarda iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalg etish borasida qator ijobjiy natijalarga erishilgan bo'lsa-da, mamlakat investitsion jozibadorligini oshirish yo'lida hali amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim vazifalar mavjud. Amaldagi holatni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, hukumat tomonidan qabul qilingan islohotlar byurokratik to'siqlarni qisqartirish, soliq va bojxona sohalarida imtiyozlar yaratish, investitsiyalarni himoya qilish bo'yicha normativ-huquqiy asoslarni mustahkamlash kabi choralar xorijiy investorlar ishonchini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ayrim hududlarda infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, ba'zi holatlarda investitsiya jarayonlarining murakkabligi, sarmoyadorlar bilan samarali muloqotning sustligi kabi muammolar mavjud. Bular investitsion jozibadorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shunday ekan, mamlakatda mavjud imkoniyatlar, geografik joylashuv, tabiiy resurslar va demografik ustunliklardan samarali foydalanish bilan birga, islohotlarning izchilligini ta'minlash, xalqaro standartlarga mos keladigan sarmoya siyosatini yuritish, sud-huquq tizimini mustahkamlash va davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish orqali investitsion jozibadorlikni yanada oshirish mumkin.

5. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, xorijiy investitsiyalarni jalg etish har bir mamlakatning iqtisodiy o'sishi va modernizatsiyasida hal qiluvchi omil hisoblanadi. AQSh, Xitoy va Singapur kabi mamlakatlarning investitsion jozibadorlikni oshirish borasidagi muvaffaqiyatli tajribasi boshqa rivojlanayotgan davlatlar uchun amaliy dars bo'la oladi. AQSh misolida investorlarga keng bozor, kuchli huquqiy tizim, rivojlangan infratuzilma va raqobatbardosh ishchi kuchi taqdim etilishi xorijiy sarmoyadorlar uchun doimiy qiziqish uyg'otib kelmoqda. Shuningdek, AQShda innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi muhit, moliyaviy ochiqlik va bozor iqtisodiyoti prinsiplariga sodiqlik muhim rol o'ynaydi. Xitoy esa, o'zining rejalashtirilgan iqtisodiy siyosati va erkin iqtisodiy zonalar orqali yirik transmilliy korporatsiyalarni jalg etishga erishgan. Xitoy hukumati tomonidan ishlab chiqilgan uzoq muddatli strategiyalar, davlat-xususiy sheriklik va texnologik parklar orqali sarmoyalarni aniqlik va xavfsizlik bilan boshqarish mexanizmlari muvaffaqiyatli natija bergen. Singapur modeli esa yuqori tartib-intizom, korrupsiyaga qarshi qat'iy kurash, soddalashtirilgan soliqlar tizimi va kuchli xalqaro integratsiya orqali sarmoyadorlar uchun jozibador iqlim yaratgan. Mamlakatda biznesni ro'yxatdan o'tkazishdan tortib, soliq to'lashgacha bo'lgan barcha jarayonlar raqamlashtirilgan va yengillashtirilgan.

6. O'zbekiston Respublikasining investitsion muhitini tahlil qilganda, mamlakatda xorijiy sarmoyalarni jalg qilish va ularni rivojlantirish uchun keng

imkoniyatlar mavjudligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Siyosiy barqarorlik, boy tabiiy resurslar bazasi, soliqqa oid imtiyozlar va investorlar uchun yaratilayotgan kafolatlar bu yo‘nalishda ijobjiy omillar hisoblanadi. So‘nggi yillarda yurtimizda yirik miqdordagi xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirilgani iqtisodiy islohotlarning samaradorligini ko‘rsatmoqda. Biroq, mavjud kamchiliklar ushbu imkoniyatlardan to‘liq foydalanishga to‘sinqlik qilmoqda. Sharhnomaviy intizomning pastligi, intellektual mulk himoyasining zaifligi, davlat ulushining yuqoriligi, statistika ochiqligining yetishmasligi hamda byurokratik to‘silalar investorlar ishonchiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, geosiyosiy beqarorliklar, valyuta kursi risklari va global iqtisodiy o‘zgarishlar tahdid sifatida doimiy nazoratni talab qiladi. Bunday sharoitda O‘zbekiston hukumati investitsion muhitni yanada yaxshilash, raqamlashtirishni kengaytirish, vechur kapitalni rivojlantirish va xorijiy investorlar bilan muloqotni kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishi zarur. Umuman olganda, mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish va mavjud kamchiliklarni tizimli bartaraf etish orqali O‘zbekiston barqaror va raqobatbardosh investitsion muhitni shakllantirish imkoniyatiga ega.

7. 2017–2023-yillar davomida Markaziy Osiyo mamlakatlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimida farqlar kuzatildi. Qozog‘iston va O‘zbekiston mintaqada eng ko‘p xorijiy sarmoya jalb qilgan davlatlar bo‘lib, ularning investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshdi. Qolgan mamlakatlarda esa investitsiyalar nisbatan past va barqaror darajada qolmoqda. Bu holat mamlakatlarning investitsiya muhitini yaxshilash, siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni ta’minalash hamda infratuzilmani rivojlantirish zaruratini ko‘rsatadi. Markaziy Osiyo mintaqasining sarmoya jalb qilish salohiyatini oshirish uchun yanada samarali va raqobatbardosh strategiyalarni ishlab chiqish lozim.

8. Hozirgi global iqtisodiy raqobat sharoitida mamlakatlar uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etish strategik ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, investitsion jozibadorlikni oshirishda faqat mavjud muammolarni bartaraf etish emas, balki istiqbolli yo‘nalishlarni belgilab, ularni izchil amalga oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, raqamli infratuzilmalarni rivojlantirish va raqamli iqtisodiyotni qo’llab-quvvatlash xorijiy texnologik sarmoyadorlar uchun jozibador imkoniyatlar yaratadi. Ikkinchidan, “yashil iqtisodiyot” va qayta tiklanuvchi energiya manbalari sohasiga investitsiyalarni jalb etish ekologik barqarorlikni ta’minalash bilan birga, global investorlar e’tiborini jalb etadi. Uchinchidan, erkin iqtisodiy zonalar va innovatsion texnoparklarni kengaytirish xorijiy biznes uchun qulay muhit yaratadi. Shuningdek, xalqaro reyting agentliklari bilan hamkorlikni kuchaytirish, mamlakatning investitsion imijini yaxshilash, yangi transport-logistika yo‘nalishlarini rivojlantirish va inson kapitaliga sarmoya kiritish yaqin istiqbolda jozibadorlikni oshiruvchi muhim omillar bo‘lib xizmat qiladi. Umuman olganda, xorijiy sarmoyadorlar uchun ochiq, barqaror va raqobatbardosh iqtisodiy muhit yaratish orqali mamlakat nafaqat investitsiyalarni ko‘paytiradi, balki iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichiga chiqishga erishadi.

9. Mamlakat iqtisodiyotini barqaror va yuqori sur’atlarda rivojlantirishda xorijiy investitsiyalar muhim strategik manba hisoblanadi. Investitsion jozibadorlikni oshirish esa, xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay muhit yaratish,

ularning ishonchini mustahkamlash va investitsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi. Bugungi kunda global raqobatning kuchayib borayotgan sharoitida investitsiyalarni jalb qilish borasida har bir davlat o'zining o'ziga xos yondashuvlarini ishlab chiqmoqda. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston uchun ham investitsion jozibadorlikni oshirish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash va ularni amaliyatga joriy etish nihoyatda dolzarb masala hisoblanadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ № DSc.03/30.12.2019.I.17.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**
ТАШКЕНТСКИЙ МЕЖДУНАРОДНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ КИМЁ

ОЧИЛОВ БОБУР БАХТИЁР УГЛИ

**ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ
ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ СТРАНЫ ДЛЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ
ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИКУ**

08.00.07 – «Финансы, денежное обращение и кредит»

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по экономическим

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером B2023.3.PhD/Iqt3266 в Высшей аттестационной комиссии.

Диссертация выполнена в Ташкентский международный университет Кимё.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Научного совета (www.tsue.uz) и на информационно-образовательном портале “Ziyonet” (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Шомиров Азизбек Абдурашидович
доктор экономических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Джумаев Нодир Хосиятович
доктор экономических наук, профессор

Элмирзаев Самариддин Эшкуватович
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация:

**Ташкентский филиал Российского
Экономического университета имени
Г. В. Плеханова (РЭУ им. Плеханова)**

Защита диссертации состоится в _____ часов «____»_____ 2025 года на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней № DSc.03/30.12.2019.I.17.01 при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100000, город Ташкент, улица Амира Темура, д.60А. Тел: (99871) 234-53-34; факс: (99871) 234-46-26; e-mail: ilmiykengash@tfi.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирована за номером______). Адрес: 100000, город Ташкент, улица Амира Темура, д.60А. Тел.: (99871) 234-53-34; факс: (99871) 234-46-26; e-mail: admin@tfi.uz

Автореферат диссертации разослан «____»_____ 2025 года.
(протокол реестра № ____ от ____ «____»_____ 2025 года).

Т.З. Тешабаев

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

Ж.Х. Атаниязов

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

И.Н. Кузиев

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В условиях нарастающей геополитической напряжённости и финансовой нестабильности в мире растёт потребность в финансировании инвестиционных проектов за счёт иностранных инвестиций, поскольку коммерческие банки предоставляют кредиты под высокие процентные ставки. В частности, согласно Отчёту Организации Объединённых Наций (ООН) по международным инвестициям, несмотря на то что в 2024 году общий объём глобальных прямых иностранных инвестиций увеличился на 4% и составил 1,5 трлн долларов США, приток ПИИ в развивающиеся страны сократился на 11% по сравнению с предыдущим годом²⁶. Данная ситуация требует повышения инвестиционной привлекательности страны для привлечения иностранных инвестиций в экономику, а также эффективного использования налоговых льгот.

В мировой практике особое внимание уделяется научным исследованиям, направленным на развитие экономики через улучшение инвестиционного климата, повышение роли инвестиций, активизацию потока прямых иностранных инвестиций, а также оценку эффективности предоставляемых государством льгот и преференций. Необходимость совершенствования стратегий, направленных на повышение инвестиционной привлекательности страны, регионов и промышленных предприятий, разработку потенциальных проектов, улучшение инвестиционной среды, а также устранение инвестиционных барьеров становится особенно актуальной. С учётом особенностей сложившейся ситуации, связанной с глобальными санкциями и пандемией, исследование вопросов привлечения иностранных инвестиций в экономику, проблем, возникающих при этом, и путей их решения является важной задачей.

На новом этапе реформ в Узбекистане особое внимание уделяется обеспечению благосостояния населения через устойчивый экономический рост на основе разумной инвестиционной политики, с целью удвоения объёма экономики к 2030 году и включения страны в число государств с доходом выше среднего. В указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы»²⁷ поставлена задача принять меры по привлечению в течение следующих пяти лет 120 млрд долларов США, в том числе 70 млрд долларов иностранных инвестиций. Несмотря на то, что в результате проводимых в республике реформ за последние пять лет достигнут ряд положительных результатов, проблема обеспечения устойчивых темпов роста остаётся одной из наиболее актуальных из-за существующих диспропорций в уровне эффективного использования инвестиционного потенциала между регионами. В связи с этим активное привлечение иностранных инвестиций в отрасли экономики и регионы, а также реализация новых инвестиционных проектов с

²⁶ <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2025> - World Investment Report 2025.

²⁷ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы». <https://lex.uz/docs/-5841063>

широким использованием специальных зон и возможностей промышленной кооперации на местах для создания цепочек добавленной стоимости стали одной из приоритетных задач, направленных на эффективное использование существующего экономического потенциала.

Указы Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № УФ-158 «О Стратегии «Узбекистан – 2030», от 28 января 2022 года № УФ-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 21 февраля 2024 года № УФ-37 «О Государственной программе по реализации Стратегии «Узбекистан – 2030» в «Год поддержки молодежи и бизнеса», от 30 декабря 2022 года № УФ-287 «О мерах по внедрению многоуровневой системы поддержки предпринимательства» и от 1 мая 2020 года № ПП-4702 Данное диссертационное исследование в определенной мере послужит реализации задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УФ-60, 2022 г. «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», «О внедрении рейтинговой системы социально-экономического развития территорий», «О мерах по реализации Инвестиционной программы Республики Узбекистан на 2021-2023 годы», «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», «О мерах по реализации Инвестиционной программы Республики Узбекистан на 2023-2025 годы», а также другие нормативно-правовые акты, касающиеся данной сферы.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данная научно-исследовательская работа проводилась в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики: «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Теоретические основы инвестиций, экономическая эффективность инвестиционных проектов, инвестиционная среда и её привлекательность, а также научно-теоретические основы привлечения иностранных инвестиций изучены в научно-исследовательских работах зарубежных и отечественных экономистов: Э. Соджли, В. Вах, А. Ролик, О. Волик, О. Солнцева, Ю. Цунаева, А. Асаул, Н. Мурашко, С. Гуткевич, О. Тахумова, Е. Касаткина, Е. Маслихова, А. Юмашев, М. Юмашева, Ю. Довгань, М. Аминул, Х. Лю, М. Асиф Хан, Т. Ислам, Р. Султануззаман, Г. Галеева, Е. Кадеева, Э. Долан, Д. Линдси, Дж. Кейнс, Й. А. Шумпетер²⁸.

²⁸ Elvira Sojli, Wing Wah Tham. “The Impact of Foreign Government Investments: Sovereign Wealth Fund Investments in the United States” In Institutional Investors in Global Capital Markets. Published online: 8 March 2015; 207-243. www.scopus.com.; Yurii A.Rolik. A Complex Approach to Evaluating the Innovation Strategy of a Company to Determine its Investment Attractiveness.// Procedia – Social and Behavioral Sciences, Volume 99, 6 November 2013, pages 562-571. <https://www.sciencedirect.com/>; Волик Ольга Андреевна, Солнцева Оксана Глебовна, Цунаева Юлия Олеговна. Повышение инвестиционной привлекательности торговых предприятий.// Вестник университети №6, 6; (2018).; Асаул А.Н. Формирование инвестиционного климата (опыт Петербургского региона).//«Экономика Украины»: Киев, №4. (2013). Мурашко Н.Н. “Оценки инвестиционной привлекательности регионов Республики Беларус и возможности ее прогнозирования”. МИДО БНТУ 2016. Стр.116.; Svitlana Gutkevych. Investment Attractiveness of Industries: Features and Trends.// Baltic Journal of

В научных работах местных экономистов А. Вахабова, Т. Маликова, О. Олимджонова, Д. Гозибекова, Н. Джумаева, Н. Хайдарова, Н. Козиева, Н. Каримова, Х. Имамова, Ж. Каримкулова, Ш. Мустафакулова и Б. Маматова, А. Шомирова непосредственно и косвенно исследованы вопросы анализа и практики финансирования инвестиционной деятельности, факторы повышения инвестиционной привлекательности среды, широкомасштабного привлечения иностранных инвестиций и активизации инвестиционных процессов в регионах²⁹.

